Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24316995

2. "The New Education: How to Revolutionize the University to Prepare Students for a World in Flux" - Cathy N. Davidson
3. "The Power of Blended Learning in the Sciences" - Norman Reid
4. "Disruptive Classroom Technologies: A Framework for Innovation in Education" - Sonny Magana
5. "Learning in the Age of Digital Reason" - Søren Brier

O’ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI BO‘YICHA FAOLIYAT KO‘RSATAYOTGAN BOSHQARUVCHI AYOLLAR .

Jumaboyeva Mahliyo
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fa’kulteti 1-kurs BXA yo’nalishi
61/23 guruh talabasi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrda Barqaror rivojlanish bo’yicha o’tkazilgan sammitda qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo’lgan davrda BMT Global kun tortibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030-yilgacha bo’lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”qaror qabul qildi . O’zbekistonda gender tengligi ko’rsatkichi ro’yxatida 2019-yil holati bo’yicha O’zbekistonning gender tengligi ko’rsatkichi ro’yxatidagi 189 mamlakat Ichida 66 o’rin.2019-2020 yillarda ayollar bandligi 4,2%ga kamaygan. Bu 2020 yilda ishlaydigan ayollar soni 2019 yildagiga nisbatan 1,3 million nafarga kamayganligini anglatadi.

O’zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish “ga oid to’qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitilishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy,iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to’liq va samarali ishtirokini va yatakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o’z ichiga oladi. Prezidentimiz 2022-yil 25-iyul kuni „O’zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni imzolandi. Farmon bilan Moliya vazirligi tarkibidi yuridik shaxs maqomiga ega bo’lmagan Ijtimoiy sug’urta jamg’arma-si tashkil etish ko’zga tutildi. Kelgusida davlat ijtimoiy sug’urtasi bo’yi-cha beriladigan nafaqalar „Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot ti-zimi orqali bosqichma-bosqich to’lanadi. Xususiy sektorlarda ishlayot-gan ayollarga davlat

Published: 28.03.2024

Cite this article: Jumaboyeva Mahliyo (2024). O’zbekistonda gender tengligini bo’yicha faoliyat ko’rsatayotgan boshqaruvchi ayollar. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316995

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

tomonidan to’lanadigan homiladorlik va tug’ish na-faqasi miqdori 2 million so’mni tashkil etadi. O’zbekiston Respublikasi Gender tenglish ta’minlash masalalari bo’yicha komissiya raisi Tanzela Norboeva. Tanzela Norboeva gender tenglikni ta’minlash masalasi dun-yoda o’z dolzarbligini yo’qotmaganini ta’kidladi . Bu bejiz emas, chunki gender tenglikka erishish jamiyat hayotining barcha jabhalarida barqaror taraqqiyotga erishishning asosiy poydevoridir.

Mazkur yo’nalishdagi samarali siyosat umr ko’rish davomiyligi, ta’lim sifati bandlike va umuman , rivojlanishning belgilangan ko’rsatkichlarga erishishga ko’maklashadi. Aynan shu sababli O’zbekistonda bu masala-lar davlatimizning doimiy diqqat markazida turibdi . Komissiya O’zbe-kiston Respublikasining Prezidentining 2019 yil 7 martdagi ,,Xotin-qiz-larning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkor-lik faoliyatini qo’llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to’grisida”gi qa-ror bilan tuzilgan edi. Gender tenglik-samarali iqtisodiy va ijtimoiy ta-raqqiyotning omili. Shu bois mamlakatimizda xotin-qizlarning o’z imko-niyatlarini to’laqonli ro’yobga chiqarishlari ,uchun barcha shart-sharoit-larni ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.Senatda Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo’mitasi tuzildi.Komissiya tomonidan qator nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda xalqaro forum, turli anjumanlar ,shuningdek, “Biz zo’ravonlikka qarshimiz “ shiori ostida aksiyalar tashkil etildi. Himoya ordeni berish tartibini joriy qilish va Amaliyotida tatbiq qilish maqsadida xorijiy tajriba o’rganilib,uning loyi-hasi ishlab chqildi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi. Shu bilan bir qatorda ,ayollarga nisbatan zo’ravonlikka barham berishda idoralararo hamkorlik standartlarini mahalliy sharoitdaga moslashtirish bo’yicha. Uning a’zolari tomonidan sog’loqni saqlash , huquqni muhofaza qilish,psixologik -ijtomoiy ko’mak ko’rsatishning minimal standartlarini joriy etilishi yuzasidan xalqaro tajriba o’rganilmoqda .Siyosiy va huqu-qiy bilimli, innovatsion g’oyalarga va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lgan xotin-qizlardan iborat 6 ming nafardan ortiq kadrlar zaxirasi shakillantirilib , xotin-qizlarning joriy yil 22 dekabr kuni bo’lib ,o’tgan saylovda deputatchilik nomzod sifatidagi faol ishtiroki ta’minlandi.So’n-gi yillarda gender tenglikni ta’minlash ,ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo’yicha ishlar bir necha yo’nalishlarda olib borilmoqda.

1.Ayollar huquqlari to’g’risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish.

2.Ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish.

3.Aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to’g’risida xabardorligi-ni oshirish.

4.Huquqni qo’llash amalyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun ma’sul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy meyorlar asosida o’qitish.

O’zbekiston Respublikasining ’’Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida’’gi hamda ,,Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonliklardan himoya qilish to’g’risida’’gi qonunlar qabul qilindi.Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta’limdagi ijobiy siljishlarni alohida

ta’kidlash kerak. Yani 2017- yildan boshlab ak-sariyat oliy o’quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo’yicha sirtqi bo’limlar faoliyati tiklandi . Shuni alohida qayd etish kerakki, 1948 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ayollar va erkaklarning tengligi alohida etirof etilgan. DEklaratsiyaning 1-moddasida belgilanganidek , ,,Hamma odamlar o’z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo’lib tug’i-ladilar .Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisba-tan birodarlik ruhida munosabatda bo’lishlari kerak. Xususan, O‘zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlari berilayotgan chuqur e’tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko’rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilindi, unga ko‘ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hk. chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to‘qqizta vazifa ishlab chiqilgagini ham ta’kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini ta’minlash va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o‘z ichiga oladi. Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta’kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo’naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to’lovlarini to’liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta’kidlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, davlatimizda gender siyosatining muhim strategik maqsadi millat oilasida xotin-qizlarning o’rni, ularning moliyaviy ahvolini va ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolati to’g’-risida’’ O’zbekiston Respublikasi qonuni 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan.